# Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

( 2021- yil yanvar-iyul oylarida )

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4014,1 mlrd.so'm sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 114,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi ( 92,1 %) ni tashkil etdi.




mlrd. so'm




*__B__–Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, __C__-Ishlab chiqaradigan sanoat __D__-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, __E__-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




FHI % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 27,7 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 0,9 % ga shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 34,6 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 14,9 % ga oshganligi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,

*(yanvar-iyul oylarida, % da)*




## Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi,

**mln. so‘mda**

| Tumanlar nomi | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | FHI, % |
|---|---|---|---|
| G‘allaorol tumani | 6 037 ,6 | 14 620,0 | 188,3 |
| Forish tumani | 3 292,9 | 3 450,6 | 81,5 |
| Sharof Rashidov tumani | 21 095,5 | 17 293,6 | 63,7 |
| Zomin tumani | 15 833,2 | 8 408,4 | 54,8 |
| Jizzax shahri | 10 141,8 | 21 139,4 | 162,1 |
| Zafarobod tumani | 4 858,1 | 6 221,9 | 68,4 |
| Baxmal tumani | 1 032,9 | 1 351,3 | 101,7 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3698,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,1 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**,

*(yanvar-iyul oylarida, % da)*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020-yilning yanvar-iyul oylarida – 3,7 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 17,7 % ( 3,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 18,5 % (19,0 %) va quyi texnologiyalisi – 55,8 % ( 64,7 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 18,3 % ( 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 1,9 % ( 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 79,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 36,8 % ( 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi  115,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,2 % ( 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajmi  indeksi 98,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,4 %( 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,1 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyul oylarida davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 24,4 ming tonna kalava ip ( 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 52,2 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Paxta tolasi**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Paxta linti**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *t.* | 38 142,0 | 37 487,0 | - 655,0 |
| **Paxta tolasi,** *t.* | 24 755,4 | 28 263,0 | 3 507,6 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** *t.* | 5 152,6 | 2 712,0 | - 2 440,6 |
| **Paxta linti, t.** | 2 023,9 | 2 685,5 | 661,6 |
| **Kalava ip, t.** | 11 941,7 | 24 425,1 | 12 483,4 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-iyul oylarida*




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 192,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ( 4,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 34,6 % ga oshganligi kuzatildi.

### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 138 211,1 | 147 941,7 | 9 730,6 |
| **Boshqa bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal** | 5,8 | 12,1 | 6,3 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 34 704,4 | 44 708,0 | 10003,6 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-iyul oylarida*




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,4 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-iyul oylarida, % da)*




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m,** | 17 638,0 | 39 622,1 | 21984,1 |
| **Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 13 605,7 | 10 759,1 | -2846,6 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 22,6 % ga oshganligi kuzatildi, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 41,2 % ga, pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1860,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyul oylariga mos davriga nisbatan 25,2 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 46,3 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 30,3 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 16,9 % ni, Forish tumani 7,5 % ni, Paxtakor tumani 7,3 % ni hamda Do'stlik tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich G'allaorol tumani ( 377,5 %), Forish tumani ( 178,9 %), Arnasoy tumani ( 175,0 %) va Zarbdor tumanlarida (136,5 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyul oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 1860,4 | 100,0 | 125,2 |
| Zomin | 98,4 | 5,3 | 82,3 |
| Jizzax shahar | 563,6 | 30,3 | 103,0 |
| Zarbdor | 121,9 | 6,5 | 136,5 |
| Arnasoy | 98,4 | 5,3 | 175,0 |
| Zafarobod | 43,8 | 2,4 | 121,0 |
| Baxmal | 53,6 | 2,9 | 101,5 |
| Mirzacho‘l | 40,4 | 2,2 | 94,9 |
| G‘allaorol | 315,2 | 16,9 | 377,5 |
| Paxtakor | 135,2 | 7,3 | 128,7 |
| Sharof Rashidov | 104,2 | 5,6 | 79,7 |
| Forish | 138,9 | 7,5 | 178,9 |
| Do‘stlik | 111,1 | 6,0 | 104,5 |
| Yangiobod | 35,7 | 1,8 | 93,5 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 29,2 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 16,8 % ni, Do‘stlik tumani 13,1 % ni, hamda Paxtakor tumani 7,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahar (144,3 %) hamda Zarbdor tumanida (154,2 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyul oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 482,5 | 100,0 | 101,6 |
| Zomin | 25,8 | 5,4 | 56,3 |
| Jizzax shahar | 140,7 | 29,2 | 144,3 |
| Zarbdor | 81,3 | 16,8 | 154,2 |
| Arnasoy | 14,4 | 3,0 | 75,6 |
| Zafarobod | 22,7 | 4,7 | 142,1 |
| Baxmal | 26,3 | 5,4 | 103,8 |
| Mirzacho‘l | 9,2 | 1,9 | 62,7 |
| G‘allaorol | 22,7 | 4,7 | 77,6 |
| Paxtakor | 34,5 | 7,1 | 74,2 |
| Sharof Rashidov | 18,4 | 3,8 | 58,3 |
| Forish | 11,9 | 2,5 | 73,8 |
| Do‘stlik | 63,2 | 13,1 | 89,7 |
| Yangiobod | 11,4 | 2,4 | 115,3 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 30,7 % ni, shuningdek, G‘allaorol tumani 21,2 % ni, Forish tumani 9,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich G‘allaorol tumaniga to‘g‘ri kelib, 539,4 % hamda Forish tumanida 206,3 % qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyul oylarida

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 1377,9 | 100,0 | 136,3 |
| Jizzax shahar | 422,9 | 30,7 | 94,0 |
| Arnasoy | 84,1 | 6,1 | 225,7 |
| Baxmal | 27,4 | 2,0 | 99,5 |
| G‘allaorol | 292,4 | 21,2 | 539,4 |
| Sharof Rashidov | 85,7 | 6,2 | 86,5 |
| Do‘stlik | 47,9 | 3,5 | 133,6 |
| Zomin | 72,7 | 5,3 | 98,4 |
| Zarbdor | 40,6 | 2,9 | 111,0 |
| Zafarobod | 21,1 | 1,5 | 104,3 |
| Mirzacho‘l | 31,2 | 2,3 | 111,7 |
| Paxtakor | 100,7 | 7,3 | 171,9 |
| Forish | 127,0 | 9,2 | 206,3 |
| Yangiobod | 24,2 | 1,8 | 85,9 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyul oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1262,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 31,5 % ni tashkil etdi.

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

2021- yilning yanvar-iyul oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati. | 4014,1 | 100,0 | 114,2 |
| Zomin | 166,3 | 4,1 | 100,4 |
| Jizzax shahar | 1419,5 | 35,4 | 101,1 |
| Zarbdor | 213,3 | 5,3 | 101,7 |
| Arnasoy | 134,3 | 3,3 | 102,1 |
| Zafarobod | 344,5 | 8,6 | 135,1 |
| Baxmal | 54,1 | 1,3 | 108,7 |
| Mirzacho‘l | 102,6 | 2,6 | 103,3 |
| G‘allaorol | 506,1 | 12,6 | 111,6 |
| Paxtakor | 200,7 | 5,0 | 97,7 |
| Sharof Rashidov | 226,1 | 5,6 | 109,6 |
| Forish | 203,6 | 5,1 | 105,3 |
| Do‘stlik | 407,3 | 10,1 | 102,6 |
| Yangiobod | 35,7 | 1,0 | 87,3 |

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod ( 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 135,1 %), G‘allaorol ( 111,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.

| Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi, % da | | Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da |
|---|---|---|




## Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 35,4 % ni) hamda Do‘stlik (10,1 %), G‘allaorol ( 12,6 %) va Zafarobod ( 8,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Baxmal (1,3 %) hamda Yangiobod (1,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri ( 7825,3 ming so‘m), Do‘stlik ( 6097,4 ming so‘m), Zafarobod ( 6794,3 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1136,9 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax shahrida 3107,1 ming so‘mni, G‘allaorol tumanida 1791,6 ming so‘mni, Arnasoy tumanida 2107,7 Paxtakor tumanida 1777,1 ming so‘mni, Do‘stlik tumanida 1663,7 ming so‘mni, Forish tumanida 1475,8 ming so‘mni, tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, ming. so‘m

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 2831,4 | 1312,3 |
| Zomin | 990,7 | 586,2 |
| Jizzax shahar | 7825,3 | 3107,1 |
| Zarbdor | 2407,2 | 1375,1 |
| Arnasoy | 2874,9 | 2107,7 |
| Zafarobod | 6794,3 | 864,6 |
| Baxmal | 337,5 | 334,8 |
| Mirzacho‘l | 1943,3 | 764,7 |
| G‘allaorol | 2877,4 | 1791,6 |
| Paxtakor | 2637,9 | 1777,1 |
| Sharof Rashidov | 992,5 | 457,6 |
| Forish | 2163,5 | 1475,8 |
| Do‘stlik | 6097,4 | 1663,7 |
| Yangiobod | 1244,1 | 1241,9 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021- yilning yanvar-iyul oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan 2141,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 53,4 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Mirzacho‘l (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Do‘stlik ( 12,9 %) tumanlarida hamda Arnasoy tumanida ( 34,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2021- yil 1-avgust holatiga)

Bugungi kunda viloyatda 3717 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 136 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 30,6 % ) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 722 tasi ( 19,4 %), G‘allaorol tumaniga 365 tasi ( 9,8 %) to‘g‘ri kelmoqda.




2021- yil yanvar-iyul oylarida viloyatda 588 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 152 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 25,9 %) Jizzax shahrida, 91 tasi (15,5%) Sharof Rashidov tumanida, 85 tasi (14,5%) G‘allaorol tumanida tashkil etildi.

Sanoat statistikasi bo‘limi

Tel: (72-221-51-13)